

## AKADEMIK LITSEYLARDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

*Ibodova Mahfuza Namozovna,  
Navoiy davlat pedagogika institute dotsenti.*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada akademik litseylarda integrativ yondashuv asosida biologiya fanini o'qitishning konseptual asoslari haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: integratsiya, integrativ yondashuv, uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik, faol pedagogik jamoa, mahorat, yo'nalish, tamoyil.*

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

*Ибодова Махфуза Намозовна,  
доцент Навоийского государственного педагогического института.*

*Аннотация. В данной статье освещены сведения о концептуальных основах преподавания биологических наук в академических лицеях на основе интегративного подхода.*

*Ключевые слова: интеграция, интегративный подход, слаженность, межпредметная связь, взаимодействие, активный педагогический коллектив, умение, направленность, принцип.*

## CONCEPTUAL BASIS OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCE BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH IN ACADEMIC LYCEUMS

*Ibodova Mahfuza Namozovna,  
Associate Professor of Navoi State Pedagogical Institute.*

*Abstract. This article covers information about the conceptual foundations of teaching biological sciences in academic lyceums based on an integrative approach.*

*Key words: integration, integrative approach, coherence, interdisciplinary communication, interaction, active teaching staff, skill, focus, principle*

Jahonda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning tezla shishi, fan, ta'lim, siyosat, ishlab chiqarish, texnika taraqqiyotida integrativ funksiyalarning kuchayishi tufayli integratsiya muammosiga qiziqish ortdi.

Bizga ma'lumki ta'limdagi integratsiya - bu ta'lim oluvchining shaxsini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan dunyoning yaxlit ko'rinishini shakllantirish uchun ma'lum bir ta'lim tizimi doirasida tarkibning tarkibiy qismlari o'rtasida aloqalarni o'rnatish jarayoni. Integratsiya ta'limdagi murakkablikni yengillashtirishga, tizimlilikka o'rgatadigan jarayondir.

Sharq mamlakatlarida ta'lim va tarbiyaning bir vaqtda olib borilishi ham integratsiya hisoblanadi. Umuman olganda dunyo bir butun deb qarasa, unda kechayotgan har qanday jarayonlar ham bir-biri bilan uzviy aloqadordir. Integratsiya esa mana shu aloqadorliklar haqida mulohaza yuritadi. Mahalliy va xorijiy pedagogika fanida integratsiya muammolarini o'rganish bo'yicha boy tajriba to'plangan. Turli davrlarda ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish vazifasini Y.A.Komenskiy, I.G.Pestalotsi, J.Russo, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiylar ilgari jarayon allaqachon tuzilgan tizim doirasida ham, yangi tizim doirasida ham amalga oshishi mumkin. Jumladan biologiya fanini o'qitishdagi integratsiya - bu ta'lim oluvchining shaxsini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan dunyoning yaxlit ko'rinishini shakllantirish uchun ma'lum bir ta'lim tizimi doirasida tarkibning tarkibiy qismlari o'rtasida aloqalarni o'rnatish jarayoni. Integratsiya ta'limdagi murakkablikni yengillashtirishga, tizimlilikka o'rgatadigan

jarayondir. Zamonaviy ta'limda fanlarni integratsiyalashuvi yangi pedagogik yechimlarni faol izlash, ta'lim oluvchilarga samarali va asosli ta'sir ko'rsatish uchun pedagogik xodimlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlaridan biridir. Integratsion yondashuv o'quvchilarni barkamol shaxs qilib tayyorlashga yordam beradigan yondashuv hisoblanadi.

Integratsiya o'quvchilarni tarqoq bilimolishlarini, bilimlarini parchalanishini oldini oladi, ularning yaxlit bilimlarni, umuminsoniy qadriyatlar majmuini egallashini ta'minlaydi. Integratsiya printsipi o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarini, tizimning barcha elementlarini o'zaro bog'lashni, tizimlar o'rtasidagi aloqani o'z ichiga oladi, u maqsadni belgilashda o'qitish mazmunini, uning shakllari va usullarini belgilashda yetakchi hisoblanadi. Integrativ yondashuv pedagogik jarayonning har qanday komponentida integratsiya tamoyilini amalga oshirishni anglatadi, pedagogik jarayonning yaxlitligi va izchilligini ta'minlaydi. Ta'limda integratsiya orqali fanlarni va fanlararo aloqadorlik jihatlarini uzviy bog'liqlikda o'qitish mumkin. Bu talabalarda dunyoni yaxlit anglashga, tizimlarning o'zaro bog'liqlikda ekanligi haqidagi tasavvurni beradi. Xususan, tabiatda yuz berayotgan hodisalar orqali talaba nutqini o'stirish mumkinligi hammamizga ayon. Tabiat hodisalari, atrof-muhitda kechayotgan jarayonlarni nutq o'stirish vositalari bo'lgan she'r, hikoya va obrazlar orqali tushuntirish mumkin. Bu o'quvchilarda mustahkam xotirani, yuksak tasavvurni shunidek, ravon nutqni ham shakllantirib yuksak bilimga ega bo'lishini taminlabgina qolmasdan ulardagi ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Akademik litseylarda integrativ yondashuv asosida biologiya fanini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) mazmunli;
- 2) operatsion;
- 3) metodik;
- 4) tashkiliy.

Integratsiyasining uchta darajasi mavjud.

1) predmet ichidagi - tushunchalar, bilimlar, ko'nikmalar va boshqalarning integratsiyasi. alohida elementlarning ichida;

2) fanlararo - faktlar, tushunchalar, tamoyillar va boshqalarni sintez qilish. ikki yoki undan ortiq fanlar;

3) transdisiplinar – ta'limning asosiy va qo'shimcha mazmuni tarkibiy qismlarining sintezi. Integratsion ta'lim bizga qanday imkoniyatlar beradi [1.14-b].

Integrativ yondashuv bizga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- mutaxassisni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi;
- ta'lim oluvchini dunyoni yaxlit idrok etishga o'rgatadi;
- ijtimoiy va kasbiy sohada faol harakat qila oladigan darajada tarbiyalaydi;
- o'quvchilarga ta'lim sifatini oshirishga ko'proq talablarni qo'yadi va o'quvchiga darsni o'qitish sifatini, bilim sifatini tobora oshirishga motivatsiya beradi;

Turli xil fanlar o'zaro bog'lanadi. Integratsiya talabalarni faol birgalikdagi ijodiy jarayonga jalb qilish imkonini beradi. Bu puxta o'ylangan ta'lim va tarbiya jarayoni bo'lib, u ta'limni tashkil etishning umumiy tuzilmasini qayta ko'rib chiqishga, o'quvchilarni idrok etish jarayoniga tayyorlashga yordam beradi. Axborotni tushunish va taxlil qilishga o'rgatib, talabalarda dunyodagi barcha jarayonlarning bir butun sifatida o'zaro ta'siri haqidagi tushuncha va g'oyalarni shakllantiradi. Shu bilan bir qatorda integrativ yondashuvning kamchiliklari va salbiy oqibatlar ham mavjud.

Ta'limda integratsiya orqali reproduktiv usulni amalda qo'llash bir o'quvchi o'rgangan materiallar foydalanishni o'z ichiga oladi, chunki ta'limda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Masalan tasviriy misollar, ko'rsatmalarni va qoidalarga yaxshi o'rganish va o'z bilimlarini mustahkamlash uchun yordam beradi. Y. M. Kolegin va O.L. Aleksinko integratsiyaning salbiy omillarini quyidagicha ko'rsatib berishadi: "o'quv predmetlarining chegaralangan soni -

olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni olamning haqiqiy ko'rinishini, qismlarining o'zaro bog'liqligini aks ettirish bilan to'ldirish mumkin;" juda muhim bo'lgan o'qish, yozish va sanoq ko'nikmalarini shakllantirish zarurati [2]. Xulosa qilib aytganda akademik litseylarda o'quv chilarning biologiyadan olgan bilimlarini takomil lashtirish, barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishdazamonaviy ta'limning rivojlanish tendentsiyasi hisob lanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abdullayeva B.S. [ Abdullayeva B.S Fanlararo aloqadorlik turlari haqida 2005 yil 14-bet]
2. Mavlonova R.A., N.»». Rahmonqulova Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi o'quv qo'llanma Toshkent - .ILM ZIYO. – 2009
3. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetent ligini shakllantirish texnologiyasi: ped. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) diss. – Arzamas, 2020y
4. M.N.Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishda integrativ texnologiyalardan foydalanishni tashkil etishning metodik tizimi. Uzluksiz ta'lim Тошкент . 2023 y. № 6 Б- 126-129 bet .
5. M.N.Ibodova. Improving the methodology of using OF electronic educational Resources in improving the effectiveness of teaching the subject " ZOOLOGY" In pedagogical higher educational institutions International scientific research journal ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023
6. M.N.Ibodova . Akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishning integrativ texnologiyalarni takomillashtirish. O'zMU xabarleri. Vestnik NUUz ASTA NUUz Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali 2023 y 1/12/2 B 93-96